
“AYOLLAR DAFTARI”DAGI 20 NAFAR XOTIN-QIZLARGA TIKUV MASHINALARI BERILDI



Qo'shtepa tumanida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning iqtisodiy jihatdan oyoqqa turishi uchun imkoniyatlar yaratish, jamiyatdagi o'rnini oshirish hamda mavjud muammolarini hal etish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bugun tuman hokimligida sektor rahbarlari va mas'ullar ishtirokida "Ayollar daftari"ning 4-bosqichiga olingan 20 nafar xotin-qizlarga subsidiyaga tikuv mashinalari topshirildi. Ushbu tikuv mashinalari "Ayollar daftari" jamg'arma mablag'lari hisobidan 20 nafar ayollarni bandligini ta'minlash maqsadida berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-09-14 15:21:27